




**TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2025-yil 1- may holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- may holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 42,8 mingtani tashkil etadi, shundan 36,6 mingtasi yoki 85,5 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan korxona va tashkilotlar 98,6 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 98,4 foizni tashkil etdi.





Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- may holatiga)

Yillar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	shundan: kichikbiznes subyektlari
2025	42 822	36 995	36 619
2024	43 409	37 603	37 206
2023	45 515	39 638	39 293
2022	51 761	45 930	45 550
2021	48 064	42 370	42 027

Hududlar bo'yicha eng ko'p korxona va tashkilotlar Zangiota – (jami faoliyat ko'rsatayotganlarning 11,5 foiz), Qibray – (8,6 foizi), Toshkent – (7,0 foizi), Parkent– (5,9 foizi) tumanlarida va Chirchiq shahrida – (6,7 foizi) hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Zangiota – (12,4 foizi), Toshkent – (7,3 foizi), Qibray – (8,8 foizi) Parkent – (6,1 foizi) tumanlariga to'g'ri keldi

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	shundan: kichik biznes subyektlari
Zangiota t.	4 926	4 561	4 525
Qibray t.	3 685	3 261	3 226
Toshkent t.	2 993	2 700	2 683
Chirchiq sh.	2 859	2 499	2 462
Parkent t.	2 529	2 231	2 218
Angren sh.	2 370	2 026	1 992
Bo'stonliq t.	2 342	1 977	1 952
Yuqori Chirchiq t.	2 161	1 876	1 859
Yangiyo'l t.	2 006	1 697	1 678
O'rta Chirchiq t.	1 912	1 653	1 637
Olmaliq sh.	1 768	1 504	1 480
Bekobod sh.	1 452	1 238	1 228
Yangiyo'l sh.	1 420	1 247	1 242
Quyi Chirchiq t.	1 316	1 103	1 096
Ohangaron t.	1 241	1 015	997
Chinoz t.	1 234	993	983
Bekobod t.	1 220	987	982
Bo'ka t.	1 212	995	992
Oqqo'rg'on t.	1 118	923	918
Nurafshon sh.	1 092	852	836
Piskent t.	1 020	821	811
Ohangaron sh.	946	836	822



Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Savdo tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- may holatiga 33,2 foizni, tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda Sanoat 14,8 foizni, uchinchi o'rinda Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 8,7 foizni tashkil qildi. Ushbu uch turdagi iqtisodiy faoliyat turlari, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 56,7 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	shundan: kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 724	3 678	3 651
Sanoat	6 357	6 346	6 203
Qurilish	2 504	2 487	2 468
Savdo	14 234	14 233	14 165
Tashish va saqlash	1 359	1 356	1 334
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 023	3 010	2 994
Axborot va aloqa	691	608	602

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	880	740	724
Boshqa turlar	10 090	4 537	4 478

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar (1- may holatiga)

2025- yil 1- may holatiga ko'ra, 37,0 mingta faol tijorat korxonalaridan 30,2 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlari bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.





Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni (1- may holatiga)


Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatani ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	30 192	81,6
Xususiy korxonalar	3 198	8,7
Oilaviy korxonalar	3 334	9,0
Aksiyadorlik jamiyati	46	0,1
Boshqalar	225	0,6

Shundan kelib chiqib, MCHJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (1- may holatiga birlikda)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 1 942 ta korxonalardan 454 tasi qo'shma korxonalar va 1 488 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.





***Chet el investitsiyas ishtirokidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ma'lumotlar***

2025-yilning 1-may holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 313 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 549 tadan 722 taga (o'sish 173 taga), axborot va aloqa sohasida 20 tadan 79 taga (o'sish 59 taga) va qurilish sohasida 70 tadan 98 taga (o'sish 28 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Jami:	1 942	454	1 488
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	78	34	44
Sanoat	717	235	482
Qurilish	98	20	78
Savdo	722	90	632
Tashish va saqlash	34	6	28
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	36	7	29
Axborot va aloqa	79	3	76
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	9	6	3
Boshqa turlar	169	53	116

***Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari
ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, 1-may holatiga***

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 803 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 41,3 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (9,7 %), Turkiya (10,6 %), Qozog'iston (4,4 %) va Janubiy Koreya (3,3 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Jami:	1 942	454	1488
Xitoy Xalq Respublikasi	803	47	756



Turkiya Respublikasi	206	22	184
Rossiya Federatsiyasi	189	34	155
Qozog'iston Respublikasi	85	14	71
Janubiy Koreya Respublikasi	64	13	51
Afg'oniston	32	1	31
Tojikiston Respublikasi	32	1	31
Birlashgan Arab Amirli	21	7	14
Amerika Qo'shma Shtatlari	17	4	13
Hindiston Respublikasi	16	3	13
Belorussiya Respublikasi	14	3	11
Singapur Respublikasi	14	6	8
Gonkong, Xitoy Ma'muriyatining Ixtisoslashgan Hududi	13	3	10
Qirg'iziston Respublikasi	13	3	10
Eron Islom Respublikasi	12	2	10
Germaniya Federativ Respublikasi	11	1	10
Boshqa davlatlar	400	290	110

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri–real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
I.Boltayev
71 203-45-00 (4560)

Maznil:
100198, Toshkent v.,
Toshkent yo'li ko'chasi, 90-uy